

**BRONXIAL ASTMA VA UNING PROFILAKTIKASI**
**Razzakov Nabijon Alijonovich**

Phd, dotsent. Qo‘qon universiteti Andijon filiali

**Asqarova Dilafruz A'zamjon kizi**

Qo‘qon universiteti Andijon filiali, talabasi

**Annotatsiya:** Bronxial astma etologiyasi va patogenezini to‘g‘risida ilmiy ma’lumotlar; bronxial astmaning tasnifi, klinikasi va uning patogenezini; bronxial astma diagnostikasi, kasallik etiologiyasi haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Bronxial astma, infeksiya - allergik astma, fenoterol gidrobromid, salbutamol, orsiprenalin, eufillin, prednizalon.

**Kirish.** Ekologiyaning yomonlashib borishi bilan bir qatorda, yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlari, salqin ichimliklar kabi iste‘mol mahsulotlari tarkibiga qo‘shilgan sintetik moddalarning salbiy ta‘siri ham o‘z natijasini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlariga qo‘shilayotgan konservantlar modda almashinuvida patologik o‘zgarishlarga olib bormoqda.

Bugungi kunda yurtimiz aholisi orasida uchraydigan nafas a‘zolari kasalliklarining asosiy qismini bronxial astma, surunkali obstruktiv o‘pka xastaligi va pnevmoniya tashkil etadi. Masalan, dunyo statistikasi bo‘yicha bronxial astma kasalligi aholi orasida o‘rtacha 5 foiz hollarda uchraydi. Bu ko‘rsatkich bolalar orasida yanada ko‘proq — o‘rtacha 10 foizni tashkil etadi. Oxirgi yillarda yurtimizda Orol fojiasi oqibatida iqlim o‘zgarishi kuzatilib, aholining nafas olish organlari kasalliklariga chalinish holatlari ortib boryapti [1].

Shular orasida astma jiddiy yuqumli bo‘lmagan kasalliklar sarasiga kiritilgan bolib, nafas yo‘llarining yallig‘lanishi va torayishi bilan tavsiflangan surunkali o‘pka hastaligidir [2]. Bronxial giperraktivlik - bu sog‘lom odam uchun xavfsiz bo‘lgan ogohlantirishlar ta‘sirida bronxial obstruksiya epizodlari bilan namoyon bo‘ladigan funktsional buzilishdir [3]. Quyidagi jadvalda bronxial astma kasalligi etiologiyalarining bir nechta eng muhimlari keltirilgan:

**1-jadval. Bronxial astmaning etiologiyasi.**


No	Mahalliy	Tashqi
1	Genetika	Allergenlar
2	Atopiyaga yordamlikni kodlovchi genlar	Hayvonlar mo‘ynalari (itlar, mushuklar, sichqonlar),
3	Bronxial giperreaktivlikni kodlovchi genlar	Tashkilot: gulchanglar, qo‘zg‘atuvchilar (birinchi navbatdagi mog‘or va quvvatturushlar)
4	Vaznning ortib ketishi (semirish)	Infeksion (asosan viruslari: RSV, parainfluenza)
5	Jins (14 yoshdan keyin ayollar ko‘proq kasal bo‘ladi)	Kasbiy allergenlar
6		Chekish: passiv, faol

Kasallik belgilari: xastalik kechay-u kunduz muntazam yo‘tal, bo‘g‘ilish va nafas chiqarishning qiyinligi, jismoniy mashqlar paytida bo‘ladigan yo‘tal, ko‘krakning “hushtak”


chalishi, allergenlar bilan muloqotda bo‘lganda hurujlarning qo‘zg‘aluvchanligi hamda ko‘krak qafasidagi noqulayliklar bilan kechadi.

Kuzgatuvchi tasiri davri infeksiyon-allergik tabiatga ega bronxial asmatik bemorlarda yaqqolrok namoyon bo‘ladi: burun-halkum a‘zolari tomonidan vazomotor reaksiyalar (burun oqishi, tinimsiz aksa urish). Ikkinchi davr (to‘satdan boshlanishi mumkin) ko‘krak qafasidagi torlik hissi bilan ifodalanadi, bu erkin nafas olish hissini bermaydi. Qisqa nafas olib, uzoq va shovqinli nafas chiqarish kuzatiladi. Xuruj paytida bemorning yuzi shishib ketadi va nafas chiqarish vaqtida bo‘yin venalari shishadi. Orqaga rivojlanish davrida balg‘amning asta sekin chiqarilash boshlanadi, hirillash son pasayadi va nafas qisilishi huruji tobora pasayadi.

Nafas qisilishi hurujlarini bartaraf etish maqsadida aerosol shaklida beta-andreomimetiklar foydalaniladi, ular bronxlarni tez kengayishiga va balg‘am ajralishiga yordam beradi. Unday preparatlar fenoterol gidrobromidi, salbutamol, ortsiprenalin. Bundan tashqari garmonoterapiya - prednizalon, eufilin kabi gormon dori vositalarini belgilangan jadval asosida qabul qilinadi [5]. Quyida bronxial astma kasalligida qo‘llaniladigan ayrim dorivor moddalarning tuzilishi keltirilgan:



**Eufillin**



**Prednizalon**

**Xulosa.** Demak, bronxial astma kasalligi profilaktikasi o‘rnida avvalo sog‘lom ekologik sharoitda xayot kechirish ya‘ni sog‘lom turmush tarzini olib borish hamda oziq-ovqat mahsulotlarini tabiiyligiga e‘tibor qaratish kerak. Biz bu o‘rinda o‘zimizning quyidagi takliflarimizni beramiz:

1.Yilda ikki bor tabiat qo‘ynida, ayniqsa, archa kop ekilgan sihatgohlarda hordiq chikarish tavsuya qilinadi.

2.Istemol qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari ham allergik tasirlardan holi bo'lishini talab qilish.

3.Unutmang, agar hayot tarzingizda tartibga rioya qilmas ekansiz, bu hastalik bilan kurashish ancha qiyin kechadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Internet manbasi <https://gujum.uz/salomatlik/astma-kasalligi-belgilari-va-uni-davolash/>
2. Vizir. V.A. // Nafas olish kasalliklarini tashxislash, davolash va oldini olish asoslari // Ukraina. 2019.42-b
3. Avdeev. S.N, Ignatova . G.L. // Rossiya allergologiya jurnali. 2021. 42-b
4. <https://yuz.uz/news/astma-kasalligi-qanday-davolanadi>.
5. <http://chem21.info/info/102694/> Arxivlangan nusxasi 2018-yil 14-maydagi Prednisolon mashinasida // 21-asr kimyogarining qo‘llanmasi